

INKLYUZIV TA'LIMNING XALQARO, MILLIY VA HUDUDIY TENDENSIYALARI
VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Xakimova Gulchehra Sayrixonova

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi.

xakimovagulchehra557@gmail.com

Akromov Dilshod Akmal o‘g‘li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogik yo‘nalishi 2- bosqich talabasi.

akramovdilshod906@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15707024>

Код поля изменен

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sohasidagi xalqaro, milliy va hududiy o‘zgarishlar, global tendensiyalar, milliy strategiyalar va joylardagi amaliyotlar tahlil qilinadi.

Inklyuziv ta’limga oid ilg‘or tajribalar, yondashuvlar hamda pedagogik ta’limning zamonaviy yo‘nalishlari o‘rganiladi. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning sifatlari ta’lim olishiga oid imkoniyatlarini kengaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlarida inklyuziv yondashuvlarning roli tahlil qilinadi. Maqolada ilmiy-nazariy asoslar bilan bir qatorda real misollar va statistik ma‘lumotlarga tayanilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, pedagogik ta’lim, alohida ehtiyojlar, ta’lim siyosati, global tendensiyalar, hududiy tajriba.

Annotation. This article analyzes the international, national, and regional dynamics of inclusive education within modern pedagogical training. It examines global trends, national strategies, and localized practices in inclusive education. The article explores best practices and pedagogical approaches that support inclusive learning environments, particularly for children with special educational needs. Emphasis is placed on the contribution of inclusive education to sustainable development and equitable access to quality education. Both theoretical and empirical perspectives are discussed.

Keywords: inclusive education, pedagogical training, special needs, education policy, global trends, regional practice.

Аннотация. В данной статье анализируются международные, национальные и региональные тенденции инклюзивного образования в современном педагогическом обучении. Рассматриваются глобальные тренды, национальные стратегии и региональная практика инклюзивного образования. Особое внимание уделяется лучшим практикам и подходам, обеспечивающим доступ к качественному образованию для детей с особыми образовательными потребностями. Анализируются теоретические основы и практические примеры, включая статистические данные.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогическая подготовка, особые потребности, образовательная политика, глобальные тенденции, региональная практика.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida barqaror rivojlanish, ijtimoiyadolat va inson huquqlari tamoyillariga asoslangan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, inklyuziv ta'lim — ya'ni barcha farzandlarning, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ham, to'laqonli va sifatli ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan yondashuv — zamонавиу педагогик тизимларнинг ажралмас бо'лагига айланб бормоқда. Дунё миқоғосида inklyuziv ta'lim bo'yicha qator xalqaro hujjatlar (masalan, YUNESKO, YUNISEF, BMT Конвенсијалари) асосида давлатлар о'з ta'lim тизимларни ислоҳ qilmoqda. Shu bilan birga, har bir mamlakatda inklyuziv ta'limning joriy etilishi o'zining madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy konteksti bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir.

Ushbu maqolada xalqaro, milliy va hududiy darajadagi inklyuziv ta'lim bo'yicha mavjud tendensiylar, ularning o'zaro bog'liqligi, o'rganish usulublari hamda zamонавиу педагогик ta'limdagi o'mni atroflicha tahlil qilinadi. Maqola pedagoglar, ta'lim siyosatchilar, tadqiqotchilar va tajriba al mashuvchi amaliyotchilar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. "Inclusion and education: All means all" – Global Education Monitoring Report - Ushbu xalqaro hisobot barcha farzandlar, ayniqsa zaif qatlamdagi bolalar uchun ta'limga to'liq kirish imkoniyatini yaratish zarurligini asoslaydi.

Hisobotda ta'lim tizimlarining inklyuzivlik darajasi, mamlakatlararo farqlar, hamda nogironligi bo'lgan bolalarga qaratilgan yondashuvlar chuqur tahlil qilinadi.

"Developing inclusive education systems: What are the levers for change?" – *Journal of Educational Change* - Muallif inklyuziv ta'lim tizimlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillarni aniqlaydi. U o'zgarishlar ijtimoiy madaniyat, siyosiy iqlim va pedagogik metodlardan iborat kompleks tizimga bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4680-sonli Qarori (2020-yil 13-aprel) - Ushbu hujjatda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, ta'limga jaib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Qaror inklyuziv ta'limning milliy me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratadi.

"Every Child Learns: Global Education Strategy" - UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan strategiyada barcha bolalarning, ayniqsa ijtimoiy jihatdan noqulay sharoitdagi bolalarning ta'limga kirishini ta'minlash bo'yicha amaliy choralar belgilangan. Hujjat inklyuziv ta'limni barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'radi.

Tahliliy-deskriptiv (tasviriy) usul - Bu metod orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro hujjatlar (UNESCO, UNICEF, Salamanca deklaratsiyasi) va milliy qonunchilik bazasi (O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, Oliy ta'lim agentligi hujjatlari) o'rganildi. Unda har bir manbaning mazmuni, asosiy g'oyalari va ularning pedagogik ta'limga ta'siri tahlil qilindi.

Komparativ (taqqoslov) metod - Xalqaro va milliy tajribalar o'zaro taqqoslab o'rganildi.

Jumladan, rivojlangan davatlardagi (Buyuk Britaniya, Finlandiya, Yaponiya) inklyuziv ta'lim yondashuvlari O'zbekiston tajribasi bilan solishtirilib, o'xshashlik va farqlar ajratib ko'rsatildi. Bu metod tadqiqotda global va lokal kontekstlarning uyg'unligi muhimligini yoritdi.

Empirik kuzatuv usuli - Hududiy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limga oid holatlar real misollar asosida o'rganildi. Pedagoglar, ota-onalar va alohida ehtiyojli bolalar bilan suhbatlari, so'rovnomalar va amaliy kuzatuvlar asosida mavjud muammolar va yutuqlar aniqlashtirildi.

Sotsiologik so'rovnama usuli - Tadqiqot doirasida pedagogik kadrlar, ta'lim muassasalarini rahbarlari va ota-onalar o'rtaida maxsus ishlab chiqilgan anketalar asosida sotsiologik so'rovlarni o'tkazildi. Bu orqali inklyuziv ta'limga nisbatan munosabat, tayyorgarlik darajasi va mavjud to'siqlar bo'yicha statistik ma'lumotlar olindi.

Statistik tahlil usuli - Empirik ma'lumotlar asosida statistik tahlillar amalga oshirildi.

Inklyuziv ta'limga ega maktablar soni, alohida ehtiyojli o'quvchilar soni, maxsus pedagoglar yetishmovchiligi bo'yicha raqamli ko'rsatkichlar tahlil qilindi va grafikalar yordamida ifodalandi.

Kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) - Tadqiqot doirasida xalqaro va mahalliy ta'lim dasturlari, metodik qo'llanmalar hamda o'quv rejalarini o'rganilib, inklyuzivlik tamoyillarining qanday aks ettirilgani tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, inklyuziv ta'lim hozirgi zamonaviy pedagogik tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Tadqiqotda xalqaro, milliy va hududiy miqyosdagi tajribalar taqqoslab o'rganildi, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadi, rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bo'lgan bolalarni umumiyligi ta'lim tizimiga qo'shish bilan cheklanmaydi, balki ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi inklyuziv madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning shakllanishi bilan bog'liqdir. Masalan, Finlyandiya, Kanada, Yaponiya singari davlatlarda barcha farzandlar uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor siyosat sifatida belgilangan. Bunda pedagoglar malakasini oshirish, ta'lim muhitini moslashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikka katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy darajadagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlanishini bo'yicha muhim huquqiy va institutsional zamin yaratilgan. Jumladan, Prezident qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar asosida inklyuziv ta'limning davlat siyosatidagi o'rni mustahkamlanmoqda. Ta'lim muassasalarini texnik jihatdan moslashtirish, maxsus pedagoglar tayyorlash, logoped va defektolog xizmatlarini joriy qilish kabi chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Hududiy darajadagi empirik kuzatuvlar va sotsiologik so'rovlarni esa muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan:

- ayrim hududlarda maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun zarur texnik vositalarning yetishmasligi;
- inklyuziv ta'lim sohasida malakali mutaxassislar (defektolog, tiflopedagog, surdopedagog) yetishmasligi;
- ota-onalar va ba'zi pedagoglar orasida inklyuzivlikka nisbatan stereotiplar mavjudligi aniqlangan.

Shunga qaramay, qator ilg'or hududlarda (masalan, Toshkent, Farg'ona, Andijon viloyatlari) inklyuziv sinflar faoliyati yo'lga qo'yilgan, maxsus o'quv rejalarini ishlab chiqilgan va ijobjiy tajribalar shakllanmoqda. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, inklyuziv ta'limni joriy etishda tizimli yondashuv, xalqaro tajriba va mahalliy sharoitlarning uyg'unlashtirilgan modeli eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida — siyosiy qarorlar, pedagogik kadrlar tayyorlash, ota-onalar bilan ishlash va texnik moslashuv darajalarida hamohanglik mavjud bo'lsa, inklyuziv ta'lim real va samarali tizimga aylanishi mumkin.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida inklyuziv ta'lim zamonaviy pedagogik tizimda muhim ijtimoiy va insoniq qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda shakllanib borayotgani aniqlandi. Xalqaro, milliy va hududiy o'lchamdag'i tajribalarni solishtirish orqali ma'lum bo'ldiki, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli joriy etish uchun yagona me'yor emas, balki lokal sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan moslashuvchan yondashuvlar zarur. Milliy darajadagi ijobji siljishlarga qaramay, tizimda hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, pedagogik kadrlar tayyorlashda inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirish, texnik va metodik ta'minot darajasini oshirish, hamda ota-onalar bilan psixologik-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish muhimligi ayon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Salamanka deklaratsiyasi va Harakat dasturi. UNESCO, 1994.
2. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. International Conference on Education. Geneva, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-187-soni qarori, 2022 yil 29 mart.
4. Мирзаахмедова Д.М. Инклюзив таълим асослари. Тошкент: Фан, 2021.
5. Ainscow, M., Booth, T. The Index for Inclusion. CSIE, 2002.
6. Norqulov A. Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'qituvchi, 2020.
7. UNICEF Uzbekistan. Inclusive Education in Uzbekistan: Situation Analysis. Tashkent, 2021.
8. Bozorova D. Ta'lim tizimida inklyuzivlik: konsepsiya va amaliyot. // Pedagogika va psixologiya, 2022, №3.
9. Florian, L. (Ed.). The SAGE Handbook of Special Education. London: SAGE Publications, 2007.
10. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yilgi yangi tahrir.
11. Xakimova, Gulchehra. "ZAMONAVIY JAMIYATDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TURIZMING ROLI." YANGI O'ZBEKİSTONDA MILLİY TURİZM İSTİQBOLLARI 1.01 (2024).
12. Hakimova, Gulchehra, and Gulandom Raxmatova. "RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINI TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI ORNI HAMDA YANGI TEKNOGIYALARINI TA'LIM JARAYONLARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI." Молодые ученые 3.18 (2025): 102-105.
13. Jabborov Maksud Bahriiddinovich; Khakimova Gulchehra Sayrikhonovna; Norova Dilobar Bakhromovna. "PROBLEMS OF TEACHING AND EDUCATING CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION." EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WOR. 2.1 (2025): 306-310.